



*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

# SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR-MAY  
OYLARI MA'LUMOTLARI



Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel.: 67-236-86-23

## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2022- yil yanvar-may oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4356,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 111,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (47,5 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2067,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*


### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI % da



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 24,5 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,4 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-may oylarida, % da)**




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022-yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2247,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 51,6 % ni tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,  
(yanvar-may oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,9 % ni (2021- yilning yanvar-may oylarida – 4,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,1 % (2021- yilning yanvar-may oylarida – 5,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,9 % (2021- yilning yanvar-may oylarida – 19,4 %) va quyi texnologiyalisi – 72,1 % (2021- yilning yanvar-may oylarida – 71,5 %) ni tashkil etdi.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % spirt	200,9	140,9	-60
Sellyuloza, kg 90%	615394	2887119	2271725
Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan gormonlar va antibiotiklar, t	2228,0	685,3	-1542,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	18,9	25,0	6,1
Paxta tolasi, ming t.	11,8	12,3	0,5

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati**  
(yanvar-may oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,9 % ni, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,3 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 578,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-may oylarida)

**FHI**  
**% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 0,3 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 50,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(yanvar-may oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 143,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 131,3 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 710,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar-may oylarida)




2021-yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 161,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi 117,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 113,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

(yanvar-may oylarida)


2021- yilning yanvar-may oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 125,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,3 % ni, fizik hajm indeksi 126,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 186,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar-may oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2067,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (47,5 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 50,4 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,** (yanvar-may oylarida, % da)




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6944,8	7293,4	348,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	142,8	238,5	95,7



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-may oylarida*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,


*(yanvar-may oylarida, % da)*



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-may	2022- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	33681,2	15912,0	- 17769,2
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1704,3	3696,0	1991,7
Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6019,4	6466,9	447,5

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1640,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 37,7 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 36,8 % ni, shuningdek, Guliston shahri 16,9 % ni, Guliston tumani 10,2 % ni hamda Mirzaobod tumani 9,2 % ni tashkil etdi.
















Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyatning o'sish sur'ati (108,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumani (229,1 %), Guliston tumani ( 161,1 %), Sardoba tumani (113,6 %), Sayxunobod tumani (108,7 %), Xovos tumani (108,6 %), Guliston shahri (107,5 %) hamda Boyovut tumanida (96,6 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022-yilning yanvar-may oylarida

				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				1640,9			100			108,8		
<b>Sirdaryo viloyati</b>												
				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				277,4			16,9			107,5		
				<b>Guliston sh</b>						<b>Sardoba</b>		
				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				10,4			0,6			80,3		
				<b>Shirin sh</b>						<b>Sayxunobod</b>		
				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				118,6			7,2			85,2		
				<b>Yangiyer sh</b>						<b>Sirdaryo</b>		
				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				84,2			5,1			96,6		
				<b>Boyovut</b>						<b>Xovos</b>		
				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				168,1			10,2			161,1		
				<b>Guliston</b>								
				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				151,0			9,2			229,1		
				<b>Mirzaobod</b>								
				<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>		
				30,7			1,9			90,7		
				<b>Oqoltin</b>								







Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 43,7 % shuningdek, Guliston tumani 14,2 %, Guliston shahri 12,1 % va Mirzaobod tumani 11,9 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022- yilning yanvar-may oylarida

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da		
	1052,0			100			117,3		
<b>Sirdaryo viloyati</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	127,5	12,1	121,0		9,7	0,9	100,7		
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	3,4	0,3	56,0		10,6	1,0	93,4		
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	97,5	9,3	103,7		458,5	43,7	97,6		
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		
	29,9	2,8	90,7		30,1	2,9	114,0		
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>					
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da						
	149,8	14,2	172,8						
<b>Guliston</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da						
	125,5	11,9	307,0						
<b>Mirzaobod</b>									
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da						
	9,5	0,9	70,4						
<b>Oqoltin</b>									

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga kelib 25,4 % ni, shuningdek, Sirdaryo 24,6 %, Sayxunobod 12,2 %, Boyovut tumanlari 9,2 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
2022- yilning yanvar-may oylarida
















		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
		588,9	100	96,2	<b>Sirdaryo viloyati</b>				
	<i>Mlrd. so'm</i>	149,9	25,4	98,2		<i>Mlrd. so'm</i>	30,8	5,2	118,4
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>					
	<i>Mlrd. so'm</i>	7,0	1,2	101,8		<i>Mlrd. so'm</i>	71,9	12,2	111,4
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>					
	<i>Mlrd. so'm</i>	21,1	3,6	46,7		<i>Mlrd. so'm</i>	144,2	24,6	91,8
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>					
	<i>Mlrd. so'm</i>	54,3	9,2	100,2		<i>Mlrd. so'm</i>	44,8	7,6	105,2
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>					
	<i>Mlrd. so'm</i>	18,3	3,1	103,7					
<b>Guliston</b>									
	<i>Mlrd. so'm</i>	25,4	4,3	101,7					
<b>Mirzaobod</b>									
	<i>Mlrd. so'm</i>	21,2	3,6	104,0					
<b>Oqoltin</b>									

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**  
2022- yilning yanvar- may oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1166,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 26,8 % ni tashkil etdi.

## Viloyatning hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-may oylarida*

	<i>Mlrd. so'm</i>			<i>Ulushi % da</i>			<i>O'sishi % da</i>			
	4356,1			100,0			111,4			
<b>Sirdaryo viloyati</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	388,0	8,9	101,3		40,8	0,9	104,2			
<b>Guliston sh</b>				<b>Sardoba</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	1984,3	45,6	114,6		146,5	3,4	96,2			
<b>Shirin sh</b>				<b>Sayxunobod</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	199,6	4,6	93,6		795,4	18,2	117,2			
<b>Yangiyer sh</b>				<b>Sirdaryo</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>			
	240,6	5,5	114,2		78,4	1,8	105,1			
<b>Boyovut</b>				<b>Xovos</b>						
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	174,4	4,0	115,5							
<b>Guliston</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	161,6	3,7	121,8							
<b>Mirzaobod</b>										
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>							
	146,5	3,4	97,2							
<b>Oqoltin</b>										

## Viloyatning jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 45,6 %), Sirdaryo tumani (18,2 %), Guliston shahri (8,9 %), Boyovut tumani (5,5 %), va Yangiyer shahri (4,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.
















Eng past ko'rsatkich esa Xovos (1,8 %) hamda Sardoba (0,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (104102,8 ming so'm), Sirdaryo tumanida (5995,8 ming so'm) hamda Guliston shahrida (4122,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4945,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1862,9 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida – 4503,0 ming so'mni, Guliston shahrida – 2947,2 ming so'mni, Yangiyer shahrida – 2632,1 ming so'mni, Mirzaobod tumanida – 2020,0 ming so'mni tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
2022- yilning yanvar-may oylarida, ming so'm**

	<b>Sanoat mahsulotlari</b>		<b>Iste'mol mahsulotlari</b>		
	4945,5		1862,9		
<b>Sirdaryo viloyati</b>					
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	4122,5	2947,2		597,1	594,7
	<b>Guliston sh</b>			<b>Sardoba</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	104102,8	545,2		1827,4	953,8
	<b>Shirin sh</b>			<b>Sayxunobod</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	4391,8	2632,1		5995,8	4503,0
	<b>Yangiyer sh</b>			<b>Sirdaryo</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>		<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>
	1791,6	627,1		790,2	755,4
	<b>Boyovut</b>			<b>Xovos</b>	
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	2289,7	2286,1			
	<b>Guliston</b>				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	2093,0	2020,0			
	<b>Mirzaobod</b>				
	<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>Iste'mol mahsulotlari</i>			
	2707,8	549,3			
	<b>Oqoltin</b>				




## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022- yilning yanvar-may oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1028,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,6 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Xovos (78,6 %), Sayxunobod tumanlarida (77,6 %) hamda Yangiyer shahrida (62,1 %) kuzatildi.



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki Oqoltin tumanida (21,8 %), Sirdaryo tumani (35,3 %), Guliston tumanida (25,0 %) hamda Shirin shahrida (0,5 %) sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes sub'yektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2213 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 540 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Guliston shahriga, 372 tasi (16,8 %) Sirdaryo tumaniga, 189 tasi (8,5 %) Yangiyer shahriga, 188 tasi (8,5 %) Boyovut tumaniga, 179 tasi (8,1 %) Mirzaobod tumaniga, 173 tasi (7,8 %) Sayxunobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2022- yilning yanvar-may oylarida viloyatda 159 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 37 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi (2322 %) Guliston shahrida, 23 tasi (14,5 %) Sayxunobod, 15 tasi (9,4 %) Mirzaobod, 14 tasi (8,8 %) Boyovut hamda 5 tasi (3,1 %) Xovos tumanlarida tashkil etildi.